

YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Katta o'qituvchi: Saidmuradova T.S.

Talaba: Djurakulova M.B.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotasiya. Mazkur maqolada yengil sanoatning mamlakat iqtisodiyotidagi o'рни, yengil sanoat korxonalarida investitsiyalarning roli, Korxonalarda investitsiyalardan foydalanish samaradorligi, investitsiyalardan samarali foydalanishni takomillashtirish yo'llari keltirilgan. Bundan tashqari mamlakatimizda investitsiya asosida tashkil etilgan korxonalar va jalb qilingan xorijiy investitsiyalar to'g'risida statistik ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, investitsion faoliyat, samaradorlik, eksport, eksport geografiyasi, moliyalashtirish, sanoat zonolari.

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Старший преподаватель Саидмурадова Т.С., студентка Джуракулова М.Б.

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. В данной статье приведены сведения о роли лёгкой промышленности в экономике страны, о значении инвестиций на предприятиях лёгкой промышленности, об эффективности использования инвестиций и путях совершенствования их эффективного применения. Кроме того, представлены статистические данные о предприятиях, созданных на основе инвестиций, и о привлечённых иностранных инвестициях в нашей стране.

Ключевые слова: экономическая стабильность, национальная экономика, экономическое развитие, инвестиции, инвестиционная деятельность, эффективность, экспорт, география экспорта, финансирование, промышленные зоны.

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENT USE OF INVESTMENTS IN LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES

Senior lecturer Saidmuradova T.S., student Djurakulova M.B.

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. This article presents information about the role of light industry in the

country's economy, the importance of investments in light industry enterprises, the efficiency of using investments, and the ways to improve their effective utilization. In addition, statistical data are provided on enterprises established on the basis of investments and on the foreign investments attracted in our country.

Keywords: economic stability, national economy, economic development, investment, investment activity, efficiency, export, export geography, financing, industrial zones.

Kirish

Mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda investitsiyalar muhim o'rin tutadi. Jumladan, bugungi kunga kelib chet el investitsiyalari xar bir iqtisodiyot rivojlanishida zarur omil bo'lib hisoblanmoqda. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim.

Sanoatda korxonalarning investitsion faoliyati mamlakatning iqtisodiy tiklanishi bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda sanoat korxonalarining investitsion faoliyati davlat investitsiya dasturlari doirasida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sanoat korxonalari investitsion faoliyatini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyati ularning katta hajmdagi mablag'ni talab qilishidir. Shuning uchun, sanoat korxonalarining investitsion loyihalarini moliyalashtirishda ular uchun katta miqdordagi moliyaviy resurslarni investitsiyalash talab etiladi.

2025 yil 16 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-6 – sonli Farmonida 2025 — 2027 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib:

- mahsulotlar eksportini 2025 yilda 4,0 milliard AQSH dollariga, 2026 yilda 5,0 milliard AQSH dollariga va 2027 yilda 7,0 milliard AQSH dollariga yetkazish;

- AQSH va Yevropa davlatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksportini 500 million AQSH dollariga yetkazish;

- ilg'or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish hamda xalqaro brendlarni jalb qilish orqali jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish;

- ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsadida 5,0 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish belgilandi [1].

Muammoning o'rganilganlik darajasi

Korxonalarning investitsion faoliyatini moliyalashtirish, ularni boshqarish va investitsion strategiyasini ishlab chiqish to'g'risida xorijlik va mamlakatimiz

iqtisodchi olimlari o'rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Har qaysi olim va izlanuvchilar korxonalarni investitsion faoliyatini moliyalashtirish va boshqarishga oid o'z yondashuv uslubi hamda fikriga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ular jumlasiga I.A. Blank, YE.V. Dmitriyeva, Y.V. Gudel, H.Uang, P.Liang, H.Li, R. Yang, D.G'. G'ozibekov, N.G'. Karimov, N.Haydarov, N.R. Ko'ziyevlarni kiritish mumkin. Mazkur iqtisodchi olimlar tomonidan, iqtisodiyotning real sektori va sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni boshqarishning zamonaviy tamoyillari, uning o'ziga xos jihatlari hamda korxonalarda investitsion faoliyatini moliyalashtirishga oid muammolar tadqiq qilingan. Y.V. Gudel sanoat korxonalarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning samarasi va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqot olib borgan.

D.G'.G'ozibekov o'z ilmiy adabiyotlarida investitsiya, investitsiya muhiti, investitsiya siyosati, investitsiya loyihalari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish masalalarini yoritgan.

N.R.Ko'ziyeva xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini tadqiq etgan holda milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini yuritish va ularning moliya-kredit mexanizmi takomillashtirilishi yuzasidan

tavsiyalarni ishlab chiqqan [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, statistik tahlil, iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, investitsiyalarni roli, samaradorligi, samarali foydalanishni takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan o'rganish va uni tahlil etish natijasida investitsiyalarni jalb etishning jozibadorligini oshiradi.

Tahlil va natijalar

Yengil sanoat – mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u eksport salohiyati, aholi bandligi va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ushbu tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalar raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ichki hamda tashqi bozorlar talabiga moslashish uchun yetarli miqdorda investitsiyani talab etadi. Ammo investitsiya jalb qilishning o'zi yetarli emas — eng muhim vazifa investitsiyalardan samarali foydalanishni ta'minlashdir [5].

Yengil sanoat korxonalarida investitsiyalarning roli juda muhim hisoblanadi. Investitsiya korxonaning moliyaviy barqarorligi va texnologik rivoji uchun asosiy manba hisoblanadi. Yengil sanoat tarmog'ida investitsiyalar quyidagi yo'nalishlarda muhim o'rin tutadi:

- yangi uskunalar sotib olish va modernizatsiya qilish – ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi.

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – tannarxni kamaytiradi, sifatni oshiradi.

- eksport salohiyatini kengaytirish – jahon bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

- bandlikni oshirish – yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

- mahsulot assortimentini kengaytirish – bozordagi o‘rinni mustahkamlaydi.

Bu omillar investitsiyaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatadi [2].

Korxonalarda investitsiyalardan foydalanish samaradorligi ko‘plab omillar bilan cheklanadi. Bu omillarning eng muhimlari quyidagilar:

1. Texnik va texnologik eskirish. Ko‘plab korxonalarda ishlab chiqarish uskunalari zamonaviy talabga javob bermaydi. Bu energiya sarfini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini ko‘paytiradi, mahsulot sifatini pasaytiradi.

2. Investitsion boshqaruvning sustligi. Loyihalarni rejalashtirish, monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish mexanizmi yetarli darajada rivojlanmagan.

3. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi. Aksariyat korxonalar o‘z mablag‘i hisobidan investitsiya kiritishga qiynaladi, bank kreditlari esa yuqori foizli.

4. Xorijiy investorlar bilan hamkorlik yetarli emas. Xalqaro investitsiyalar texnologiya, boshqaruv tajribasi va eksport bozorlari uchun katta imkoniyatlar yaratsada, bu yo‘nalish ham hali to‘liq ishlatilmayapti.

5. Raqobatbardoshlik yetarli darajada emas. Sifat, dizayn, marketing va logistika bilan bog‘liq kamchiliklar investitsiyaning qaytishini sekinlashtiradi [2].

Investitsiyalardan samarali foydalanishni takomillashtirish yo‘llari quyidagilar:

1. Modernizatsiya va texnologik yangilanishni jadallashtirish. Energiya tejamkor, avtomatlashtirilgan uskunalarni joriy etish. LRaqamli texnologiyalar (IoT, avtomatlashtirilgan tikuv liniyalari) qo‘llash. LLZamonaviy dizayn studiyalari va texnologik markazlar tashkil qilish.

2. Investitsiya loyihalarini professional boshqarishni yo‘lga qo‘yish. Loyiha boshqaruvi metodologiyasini (PMI, Agile, Lean) joriy etish. Risklarni tahlil qilish, monitoring va audit tizimini kuchaytirish. Strategik rejalashtirish asosida investitsiya portfelini shakllantirish.

3. Moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish. Bank kreditlaridan tashqari: lizing, kraudfanding, korporativ obligatsiyalar, davlat – xususiy sheriklik (PPP) loyihalarini rivojlantirish. Innovatsion loyihalar uchun grant va subsidiyalar jalb etish.

4. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Bepul iqtisodiy zonalar orqali qulay sharoit yaratish. Soliq imtiyozlari va bojxona yengilliklarini kengaytirish. Xalqaro brendlar bilan qo‘shma korxonalar tashkil etish.

5. Kadrlar malakasini oshirish. Investitsiyaning qaytimi bevosita inson kapitali bilan bog'liq. Shu sabab: texnolog mutaxassislar, konstruktorlar, dizaynerlar, marketing va menejment xodimlari uchun muntazam o'qitish dasturlari joriy etilishi zarur.

6. Marketing va eksport strategiyalarini kuchaytirish. Investitsiya qanchalik katta bo'lmasin, mahsulot bozorga chiqmagan bo'lsa, uning samarasi past bo'ladi. Eksport bozorlarini o'rganish. Brending va reklamaga sarmoya kiritish. Onlayn savdo tizimlarini rivojlantirish. Logistika infratuzilmasini takomillashtirish.

7. Korxonalarda resurslardan tejamkor foydalanish. Chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish (Zero Waste). Suv va energiya sarfini kamaytirish. Qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish. Bu yo'nalishlar investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini sezilarli oshiradi [2].

Bugungi kunda mamlakatimizda Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Bunday korxonalar soni so'nggi 5 yilda 1,8 barobarga oshgan, ya'ni jami chet el investitsiyalari ishtirokidaga korxonalar soni 17188 taga yetdi. Ulardan 4 134 tasi qo'shma korxonalar va 13054 tasi xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Bu korxonalar asosan quyidagi davrlarlar ishtirokida tashkil etilgan: Xitoy – 4 570 ta, Rossiya – 3 150 ta, Turkiya – 2 048 ta, Qozog'iston – 1 165 ta, Janubiy Koreya – 681 ta, Afg'oniston – 616 ta, BAA – 377 ta, Tojikiston – 364 ta, Hindiston – 343 ta, Qirg'iz Resp. – 339 ta [3].

Bu korxonalarning tashkil etilishi sanoat mahsulotlarining eksport salohiyatini oshishiga va eksport geografiyasini kengayishiga olib keladi.

So'nggi yillarda mintaqamizda o'zaro savdo, investitsiyalar va transport tashuvlari hajmi besh barobargacha ko'paydi. Biz qo'shma investitsiya jamg'armalari, chegara hududlarida savdo va sanoat zonalarini tashkil qilinmoqda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqda.

2024 yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 493,7 trln so'mni tashkil etgan, 2025 yilning yanvar-sentabr oylarida esa jami 24,9 mlrd AQSH dollarilik xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan va bu investitsiyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan [3].

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ijtimoiy - iqtisodiy muammolarni hal etishga yordam beradi, ya'ni bo'sh turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishga erishish, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi. Bu esa o'z navbatida, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun birinchi navbatda, ular uchun qulay muhit, kafolat va rag'batlantiruvchi iqtisodiy omillar kuchaytirilishini taqozo etadi. Shuning

uchun ham, qulay investitsion iqlim shakllanmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. Shu bois, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi roli va salohiyati uning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi, hamda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishning oqilona yo'llarini tanlash O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Yengil sanoat korxonalarida investitsiyalardan samarali foydalanish – nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham strategik ahamiyatga ega jarayon. Modernizatsiya, innovatsiyalar, loyihalarni professional boshqarish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda inson kapitalini rivojlantirish investitsiya samaradorligining asosiy drayverlari hisoblanadi. Bu yo'nalishlarni izchil va tizimli amalga oshirish yengil sanoat korxonalarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi, mamlakat eksport salohiyatini kengaytiradi va iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2025 yil 16 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-6 – sonli Farmoni
2. Kotler P. Principles of Marketing.
3. STATISTIKA / Rasmiy kanal
4. Kuziyeva N.R. "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari". Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. 2008 - 41b.
5. Xujamqulov D.Y., Ismailov D.A. Investitsiya loyihalarini boshqarish. O'quv qo'llanma, Toshkent.2019 y.